ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -2

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 2

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QUV MOTIVINING PASAYISHIGA TA’SIR ETUVCHI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI.

Raximdjanova Shahnoza Erkin qizi
Nordik xalqaro universiteti, Magistratura bosqichi, Pedagogika yo‘nalishi
1-bosqich 3 MPA-25- guruh magistranti
E-mail: raximdjanovashahnoza@gmail.com
E-mail: s.raximdjanova@nordicuniversity.org

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida 8-9-sinf o‘quvchilarining o‘quv motivatsiyasini shakllantirish muammolari hamda uning pasayishiga ta’sir etuvchi pedagogik-psixologik omillar tizimli tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarining yosh davri ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, ta’lim jarayonida ichki o‘quv motivini barqarorlashtirishning samarali pedagogik modellarini asoslab berishdan iborat. Maqolaning nazariy poydevorini jahon va mahalliy pedagogika hamda psixologiya fanining fundamental konsepsiyalari, xususan, o‘smirlardagi shaxslararo muloqot, avtonomiya, kompetentlik hamda "oqim" holati nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqot doirasida yuqori sinf o‘quvchilarining o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati adaptatsiya qilingan sotsiometrik so‘rovnoma vositasida empirik jihatdan o‘rganildi va olingan natijalar ilmiy-statistik tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, o‘quv motivi, ehtiyoj, o‘smirlik davri, pedagogik omillar, psixologik to‘siqlar, test-so’rovnoma, tahlil, natija, interfaol metod.

Abstract. This article systematically examines the problems of developing learning motivation among 8th–9th grade students in the general secondary education system, as well as the pedagogical and psychological factors contributing to its decline. The purpose of the study is to substantiate effective pedagogical models for stabilizing students’ intrinsic learning motivation in the educational process, taking into account the developmental needs of senior-grade adolescents. The theoretical foundation of the article is based on the fundamental concepts of international and national pedagogy and psychology, particularly the theories of interpersonal communication, autonomy, competence, and the “flow” state in adolescents. Within the framework of the study, senior students’ attitudes toward learning activities were empirically investigated through an adapted sociometric questionnaire, and the obtained results were analyzed using scientific and statistical methods.

Keywords: education system, learning motivation, need, adolescence, pedagogical factors, psychological barriers, test questionnaire, analysis, result, interactive method.

Аннотация. В данной статье системно исследуются проблемы формирования учебной мотивации учащихся 8–9-х классов в системе общего среднего образования, а также педагогические и психологические факторы, влияющие на её снижение. Цель исследования заключается в обосновании эффективных педагогических моделей стабилизации внутренней учебной мотивации в образовательном процессе с учётом возрастных потребностей учащихся старших классов. Теоретическую основу статьи составляют фундаментальные концепции мировой и отечественной педагогики и психологии, в частности теории межличностного общения, автономии, компетентности и состояния «потока» у подростков. В рамках исследования отношение учащихся старших классов к учебной деятельности было эмпирически изучено с помощью адаптированного социометрического опросника, а полученные результаты подвергнуты научно-статистическому анализу.

Ключевые слова: система образования, учебная мотивация, потребность, подростковый возраст, педагогические факторы, психологические барьеры, тест-опросник, анализ, результат, интерактивный метод.

KIRISH.

Bugungi jadal rivojlanayotgan ta’lim tizimida axborot texnologiyalari integratsiyasi, o‘quv qo‘llanmalarning yangilanishi va Finlyandiya hamda Singapur kabi ilg‘or ta’lim modellari asos qilib olinishiga qaramay, maktablarda ta’lim sifati kutilgan natijani bermayotgani kuzatilmoqda. Eng asosiy muammolardan biri – raqamli tehnologiyalar rivojlangan, ta’lim jarayoniga kirib kelgan bir davrda o‘quvchilarning darslarda zerikib qolishi va ularda bilim olishga bo‘lgan ichki ishtiyoqning so‘nib borishidir. Ushbu holat ta’lim islohotlarining samaradorligi borasida haqli savollarni yuzaga keltirmoqda: nima uchun zamonaviy yondashuvlar sharoitida ham o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoj so‘nib boryapti? Nima uchun shuncha islohotlar qilinayotgan bir paytda o‘quvchi subyektivligi orqada qolmoqda? Mazkur tadqiqot ishi yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv motivi pasayishiga ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik va psixologik omillarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, tadqiqot davomida o‘quvchilar o‘rtasida test sinovlari, anonim so‘rovnomalar va dars kuzatuvlari o‘tkazildi. Olingan natijalar o‘quv motivini oshirish bo‘yicha aniq metodik tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarida motivatsiya pasayishining tub sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI. E. Deci va R.Ryan tomonidan ishlab chiqilgan “O‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi” (Self-Determination Theory - SDT) bizning tadqiqotimiz uchun fundamental ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Deci va

ISSN 3030-3907

Ryan nazariyasiga ko‘ra, [o‘quvchi shunchaki "bilim oluvchi" emas, balki uchta asosiy psixologik ehtiyojga ega bo‘lgan shaxsdir. Agar o‘qituvchi darsda shu 3 ta ehtiyojni qondira olsa, o‘quvchida ichki motivatsiya paydo bo‘ladi”[29]

1. Avtonomiya–tanlov erkinligi. O‘quvchi o‘zini darsning “obyekti”emas, balki “subyekti”deb his qilishi kerak. So‘rovnomamizda o‘quvchilarning 45% “bir xillikdan” shikoyat qilishi aynan avtonomiyaning yo‘qligini ko‘rsatadi. Darsda o‘quvchiga “qaysi topshiriqni birinchi bajarish” yoki “mavzuni qaysi metodda o‘rganish” bo‘yicha tanlov berilishi motivatsiyani keskin oshiradi.

2. Kompetentlik–muvaffaqiyat hissi. O‘quvchi “men buni bajara olaman” degan hissiyotga ega bo‘lishi shart. Murakkab darsliklar va tushunarsiz mavzular o‘quvchida o‘z kompetentligiga nisbatan shubha uyg‘otadi (Self-efficacy pasayadi). Natijada u darsdan sovushi aniqlandi. Deci va Ryan bo‘yicha, topshiriqlar o‘quvchining darajasiga mos (optimal qiyinchilikda) bo‘lishi lozim.

3. Aloqadorlik– ijtimoiy bog‘liqlik. O‘quvchi sinfdoshlari va o‘qituvchisi bilan ijobiy munosabatda bo‘lishi, o‘zini guruhning bir qismi deb his qilishi kerak]2

METODOLOGIYA. Tadqiqot jarayonida Toshkent shahridagi umumta’lim maktablarining 8-9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida kompleks o‘rganish o‘tkazildi. Ma’lumotlarni to‘plashda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Psixologik test: N.G. Luskunova metodikasining yuqori sinf o’quvchilariga moslashtirilgan varianti asosida o‘quv motivatsiyasi darajasini o‘lchash test-so’rovnomasi o’tkazildi.

-Pedagogik kuzatuv: dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi va o‘qituvchi bilan muloqot tizimi bevosita kuzatildi, hamda o‘quvchilar bilan suhbatlar tashkil etildi.

NATIJALAR. O‘quv jarayonidagi motiv pasayishi sabablarini aniqlash, tahlil qilish va o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish yo‘llarini ishlab chiqish maqsadida 9-sinf o‘quvchilari bilan Google Forms orqali test-so’rovnoma o‘tkazildi.

Javoblarni tahlil qilish natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi:

1. **Ichki motivatsiya (25%):** Bilim olishga bo‘lgan sof qiziqish va fanni o‘rganishdan lazzat olish.

2. **Tashqi (kasbiy) motivatsiya (60%):** Kelajakda yaxshi ish topish, ota-ona va o‘qituvchi oldidagi mas’uliyat.


[29] Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Self-Determination and Intrinsic Motivation in Human Behavior (Inson xulq-atvorida o‘z-o‘zini aniqlash va ichki motivatsiya). New York: Plenum Press. – 391 p.

ISSN 3030-3907

3. **Inert (passiv) holat(15%):** O‘quv jarayoniga qiziqishi past, shunchaki majburiyat yuzasidan darsga qatnashish.

Tahlil natijalariga tayangan holda shuni aytishim mumkinki, o‘quvchilar o‘qituvchilarning bilim darajasidan qoniqishadi, ammo dars o‘tish metodikalari biroz zerikarli tuyulmoqda. Darslarning zerikarliligi o‘quvchilarda o‘quv motivi pasayishiga sabab bo‘layotgan omillardan biri bo‘lmoqda.

“Ta’lim jarayonidagi nimadan ko‘nglingiz to‘lmaydi” degan savolga javoblar tahlili



Ushbu jadvalda o‘quvchilarga darsda nima halaqit berishi bo‘yicha olingan natijalar tahlili ko‘rsatilgan:

1-Jadval

Muammo turi	Foiz ko’rsatkichi	Sabab va oqibati
Monotonlik (bir xillik)	45%	Faqat ma’ruza va kitob bilan ishlash, ko‘p yozish zerikishga olib keladi.
Mavzuning murakkabligi	30%	Tushunmaslik natijasida o‘quvchi o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotadi.
Psixologik muhit	15%	O‘qituvchi bilan muloqotdagi qiyinchiliklar
Boshqa omillar	10%	Uy vazifalarining ko‘pligi va charchoq

MUHOKAMA. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya pasayishiga ikki turdagi omillar ta’sir qilmoqda:

Psixologik omillar: O‘smirlik davridagi o‘zini anglash inqirozi va e’tiborning ijtimoiy munosabatlarga (do‘stlar, ijtimoiy tarmoqlar) ko‘proq yo‘nalishi.

ISSN 3030-3907

Pedagogik omillar: O‘qituvchilarning hamon “avtoritar” yoki “ma’ruza” uslubidan voz kecha olmayotgani. Ta’limda “son” (statistik ko‘rsatkichlar) ortidan quvish o‘quvchining shaxsiy qiziqishlarini ikkinchi darajaga tushirib qo‘ymoqda.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasining pasayishi shunchaki o‘quv yuklamasining ortishi emas, balki pedagogik muhitning o‘smir psixologik ehtiyojlariga mos kelmasligi natijasidir.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, respondentlarning 46.3% qismi darslardagi monotonlikdan zerikishini bildirgan. Bu holatni M. Chiksentmixayining "Oqim" (Flow) nazariyasi orqali tushuntirish mumkin: [“o‘quvchi o‘z mahorati (skill) va topshiriq murakkabligi (challenge) o‘rtasidagi muvozanatni his qilmaganda, ta’im jarayonidan uzilib qoladi”[30]]4 Ushbu muammoni hal qilish uchun ta’limni geymifikatsiyalash (masalan, Kahoot yoki Quizizz platformalari orqali) va darsga muammoli ta’lim elementlarini kiritish lozim. Bu nafaqat o‘quvchilarning 82.9% tashkil etgan AKT ga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, balki darsning emotsional jozibasini oshiradi.

So‘rovnomaning 61% respondentlari guruh bo‘lib ishlashni afzal ko'rganligi L.I. Bojovichning o‘smirlik davridagi muloqot ehtiyoji haqidagi qarashlarini tasdiqlaydi[31].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, darslarni B. Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari — tahlil va sintez darajasida loyihalashtirish, o‘quvchilarga avtonomiya (tanlov erkinligi) berish yuqori sinflarda motivatsiya inqirozini bartaraf etishning strategik yo‘nalishidir[32].

Tahlillarimiz asosida o‘quv motivatsiyasini oshirishning **"Uchlamchi Strategiyasi"** ni taklif etamiz:

Pedagogik (Bloom taksonomiyasi):

-Darslarni faqat xotirlash emas, balki tahlil va sintez darajasida (muammoli ta'lim) tashkil etish;

-Ta’lim mazmunini amaliyotga (hayotiy ehtiyojlarga) yaqinlashtirish;

-Ta’limda zerikarlilikdan qochish, ko‘proq interaktiv usullardan foydalanish;

- Dars jarayonini o‘quvchilarning charchoq darajasini kamaytirish maqsadida "30/15" modelida tashkil etish (30 daqiqa nazariya va 15 daqiqa interaktiv amaliyot);

[30] Csikszentmihalyi, M. (1990). (Oqim: Optimal tajriba psixologiyasi). – 74 p

[31] Bozhovich, L. I. (1968). (Shaxs va uning bolalik yoshida shakllanishi)– 251 p

[32] Bloom, B. S. (1956). Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi: Ta’limiy maqsadlar tasnifi. 180-207 p.

ISSN 3030-3907

-AKT (Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)dan foydalanish.

Psixologik (Bojovich):

-O‘quvchilar bilan individual ishlash;

-O‘quvchini "obyekt" emas, "subyekt" (jarayon ishtirokchisi) sifatida tan olish;

- Guruhli topshiriqlar ulushini kamida 50% ga yetkazish;

-O‘quvchilarni doimo qo‘llab-quvvatlash;

-O‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish.

METODIK (Geymifikatsiya): Darsga yangi pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar ("Sintaktik detektiv", "Keys-stadi", rolli o‘yin va raqamli o‘yin elementlari) ni kiritish;

-Darsda o‘quvchiga "qaysi topshiriqni birinchi bajarish" yoki "mavzuni qaysi metodda o‘rganish" bo‘yicha tanlov berish;

- O‘quvchilarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish.

So‘zim yakunida shuni aytishim mumkinki, yuqori sinf o‘quvchilarida motivatsiya pasayishi — bu "bilim olishni xohlamaslik" emas, balki ta’lim metodikasining o‘smir psixologik ehtiyojlariga (muloqot, avtonomiya, vizuallik) mos kelmasligi natijasidir. Ta’lim jarayonini yuqorida berilgan tavsiyalar asosida, B. Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari — tahlil va sintez darajasida loyihalashtirish, o'quvchilarga avtonomiya (tanlov erkinligi) berish yuqori sinflarda motivatsiya inqirozini bartaraf etishning strategik yo'nalishidir. Zero, o‘quvchilarda o‘quv motivini shakllantirish jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki ularning shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda darsni loyihalashni talab etadi. Tadqiqotda isbotlanganidek, o‘smirlarning ijtimoiy muloqotga bo‘lgan intilishini metodik vositalar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchining ta’lim jarayonidagi faolligini oshirib, unda barqaror ichki motivatsiyaning yuzaga kelishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bozhovich, L. I. (1968). Lichnost i ee formirovanie v detskom vozraste (Shaxs va uning bolalik yoshida shakllanishi). Moscow: Prosveshchenie. – 464 p.

2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Self-Determination and Intrinsic Motivation in Human Behavior (Inson xulq-atvorida o‘z-o‘zini aniqlash va ichki motivatsiya). New York: Plenum Press. – 391 p.

3. Blum B. S. Ta’lim maqsadlari taksonomiyasi: Ta’limiy maqsadlar klassifikatsiyasi. I qo‘llanma: Kognitiv soha. – Nyu-York: Devid Makkey, 1956. – 201-207-p

4. Csikszentmihalyi, M. (1990). Flow: The Psychology of Optimal Experience (Oqim: Optimal tajriba psixologiyasi). New York: Harper & Row. – 303 p.

5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

ISSN 3030-3907

6. Nishonova, Z. T. (2011). Psixologik maslahat (Psixologicheskoe konsultirovanie). Toshkent: "Sharq" nashriyoti. – 256 b.
7. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
8. Shulman L. S. Bilim va o‘qitish: yangi islohotlarning asoslari.
9. Harvard Educational Review. – 1987. – 57(1)-son. – 1-23-betlar.
10. YUNESKO. Ta’limda texnologiya: kimning shartlari asosidagi vosita?
11. Global ta’lim monitoringi hisoboti. – 2021. – 15-28-betlar.
12. G‘ayratov, G‘. B. (2010). O‘quv motivlarining psixologik xususiyatlari (Psixologicheskie osobennosti uchebnix motivov). Toshkent: Fan va texnologiya. – 128 b.

ISSN 3030-3907